

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№7

2025
IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCES

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
LIBRARY.RU



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Yashil ish o'rirlari va ekologik ta'lif: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar	12
Rashidov Saidislom, Zaripova Mardonha	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tov lash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri	16
Babanazarova Nilufar Xolmatovna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budjet mablag'laridan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati	23
Rustamova Gulmira Alikulovna	
Dasturiy mahsulotlar logistikasi	30
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	35
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Oliy ta'lif muassasalarini "yashil universitet" tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta'lif muassasalari o'rta sidagi hamkorlik misolida)	39
Rahmatov Shuxrat Axatovich	
Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash	43
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Optimizatsiya biznes-protsessov i modernizatsiya занятости в условиях цифровизации	47
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni	54
Otoboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlashtirish	61
Annaklichev Saxy Saparmuxamedovich	
Aльтернативный подход к распределению финансовых ресурсов для эффективного финансирования высшего образования	65
Гулшат Карлибаева	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	70
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
O'zbekistonda jahon sivilizatsiyasiga ta'sir o'tkaza oladigan zamonaviy qarashlarga ega memorlarning yetishmasligi	74
Nabiiev Hamidjon Mirzo o'g'li	
General Concept and Principles of Quality Management System	78
Atamirzayev Nodirbek Bekmirzayevich	
Transformatsiya jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirish	84
Absamatov Anvar Ergashovich	
Oliy ta'lif massasalarini moliyalashtirish bo'yicha yevropa tajribasi	89
Karlibaeva Gulshat	
Интегральный показатель отбора экспертов для принятия коллегиальных диагностических решений	94
Uraqov Shokir Ulashovich	
Korxona faoliyatini tahlil qilishda boshqaruv hisobining roli	100
Abdurusulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
Raqamli iqtisodiyot va buxgalteriya hisobini tashkil etish	107
Abdullahayev Abdurauf	
Moliyaviy hisobotni transformatsiya qilish	112
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	



O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri	116
Samarqand davlat universiteti, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Raqamli iqtisodiyotning turizm sohasidagi bandlik shakllariga ta'siri.....	120
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Xalqaro moliya-kredit institutlari bilan hamkorlikning xorij tajribasi.....	126
Qosimov Bobur Sobirovich	

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS



XALQARO MOLIYA-KREDIT INSTUTLARI BILAN HAMKORLIKNING XORIJ TAJRIBASI

Qosimov Bobur Sobirovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
“Moliya pul muomalasi va kredit” kafedrasining
tayanch doktoranti

[Elektron pochta: Boburkosimov0@gmail.com](mailto:Boburkosimov0@gmail.com)

ORCID: 0009-0006-8238-1098

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro moliya-kredit institutlari bilan hamkorlik bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganilan. Xalqaro institutlar ishtirokida amalga oshirilgan kreditlash, investitsiya loyihalari va institutsional islohotlar mamlakatlarning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish hamda institutsional salohiyatni kuchaytirishda tutgan o'rnni yoritishga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ushu yo'nalihsda O'zbekiston uchun ahamiyatli bo'lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro moliya-kredit institutlari, Juhon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki.

Abstract: This article studies the experience of foreign countries in cooperation with international financial and credit institutions. Suggestions and recommendations are made on how lending, investment projects and institutional reforms implemented with the participation of international institutions can ensure macroeconomic stability, develop infrastructure and strengthen institutional capacity in countries.

Keywords: International financial and credit institutions, World Bank, International Monetary Fund, Asian Development Bank, Islamic Development Bank.

Аннотация: В статье рассматривается опыт зарубежных стран по сотрудничеству с международными финансово-кредитными институтами. Даны предложения и рекомендации относительно того, как кредитование, инвестиционные проекты и институциональные реформы, реализуемые с участием международных институтов, могут обеспечить макроэкономическую стабильность, развитие инфраструктуры и укрепление институционального потенциала стран.

Ключевые слова: Международные финансовые и кредитные институты, Всемирный банк, Международный валютный фонд, Азиатский банк развития, Исламский банк развития.

KIRISH

Globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda xalqaro moliya-kredit institutlari (XMKI) dunyo mamlakatlari, ayniqsa rivojlanayotgan va o'tish davridagi iqtisodiyotlar uchun muhim moliyaviy hamkor sifatida maydonga chiqmoqda.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ), Juhon banki guruhi, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) kabi yirik institutlar davlatlar tomonidan amalga oshirilayotgan makroiqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va institutsional salohiyatni oshirishda muhim rol o'ynaydi.



Ko'plab xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, XMKI bilan samarali hamkorlik nafaqat moliyaviy resurslarga ega bo'lish, balki zamonaviy boshqaruva amaliyotlarini joriy etish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va xalqaro reytinglarni yaxshilashga ham xizmat qilgan. Bunday hamkorlik o'ziga xos yondashuv, institutsional muvofiqlik va shaffoflikni talab etadi.

Mazkur maqolada xorijiy mamlakatlarning XMKI bilan olib borgan hamkorlik tajribasi tahlil qilinib, ularning yutuqlari va muammolari o'rjiniladi. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida O'zbekiston uchun mos bo'lgan samarali yondashuvlar aniqlanadi va tegishli xulosalar chiqariladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, Jahon banki, XVJ, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa institutlar nafaqat moliyaviy resurs manbai, balki islohotlar katalizatori sifatida namoyon bo'ladi.

S. Griffith-Jones va J. Ocampo tomonidan ishlab chiqilgan tadqiqotda rivojlanayotgan davlatlarda Jahon banki va mintaqaviy moliya institutlarining iqtisodiy barqarorlikka qo'shgan hissasi keng yoritilgan. Mualliflar ushbu institutlar tomonidan taqdim etilgan qarzlar infratuzilma rivoji, sog'liqni saqlash va ta'lif tizimining modernizatsiyasi uchun foydali bo'lganini qayd etishadi [1].

Boshqa bir tadqiqotda F. Reinsdorf Osiyo davlatlarining OTB bilan hamkorligi orqali innovatsion texnologiyalarni iqtisodiyotga joriy qilishdagi muvaffaqiyatlarini tahlil qiladi. Muallif OTBning uzoq muddatli strategik yondashuvi, loyihami moliyalashtirish mexanizmlarining ishonchiligi va davlat-xususiy sheriklik modellarini ilgari surganini alohida ta'kidlaydi [2].

Rossiya iqtisodiyotining o'tish davridagi tajribasi asosida olib borilgan ilmiy izlanishlarda XMKI bilan hamkorlikning ijobji va salbiy jihatlari chuqur yoritilgan. E.A. Kapustina o'z tadqiqotida Rossiyaning XVJ bilan o'zaro munosabatlarini tahlil qilib, bu hamkorlik Rossiya makroiqtisodiy siyosatining liberalallashtirilishiga turki berganini ko'rsatadi. Kreditlar bilan birga kelgan qat'iy siyosiy va fiskal shartlarning ichki siyosiy jarayonlarga salbiy ta'siri borligini ham tan oladi [3].

A. Vladimirova esa Rossiyaning Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorligini tahlil qilib, ekologik barqarorlik, yashil energetika va infratuzilma sohalaridagi yutuqlarni ijobji baholaydi. U bunday loyihamalar orqali mahalliy institutlar va xalqaro tashkilotlar o'tasida samarali institutsional aloqalar shakllanganini ta'kidlaydi [4].

O'zbekistonlik olimlar tomonidan so'nggi yillarda XMKI bilan hamkorlikning o'ziga xos jihatlari, yutuqlari va cheklowlari bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, H. Abdurahmonov O'zbekistonning Jahon banki, OTB va Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikdagi loyihamalari tahlilida institutsional islohotlar, sog'liqni saqlash va ta'lif sohalaridagi moliyaviy qo'llab-quvvatlash samaradorligini tahlil qiladi. Uning fikricha, xalqaro institutlar bilan to'g'ri tashkil etilgan hamkorlik milliy strategik maqsadlar bilan uyg'un bo'lishi lozim [5].

Shuningdek, I. Yusupov va M. Rustamova tomonidan olib borilgan tadqiqotda XMKI tomonidan moliyalashtirilgan infratuzilma loyihamalarining hududiy rivojlanishga ta'siri o'rganiladi. Ular mahalliy hokimiyatlar va xalqaro tashkilotlar o'tasidagi hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish lozimligini ta'kidlaydi [6].

N. Ibragimova o'z tadqiqotida O'zbekistonning XVJ bilan texnik ko'mak hamkorligini tahlil qilgan bo'lib, budjet jarayonlarining shaffofligini ta'minlash, soliq islohotlarini yo'lga qo'yishda XMKI konsalting yordami alohida o'r'in tutganini ta'kidlaydi [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, statistik guruhash, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahonda globallashuv jarayonlari chuqurlashib borar ekan, xalqaro moliya-kredit institutlari (XMKI) jahon iqtisodiy tizimining ajralmas bo'g'iniga aylangan. Rivojlanayotgan va o'tish davridagi mamlakatlardan uchun iqtisodiy o'sishni ta'minlash, infratuzilmani modernizatsiya qilish, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish va ijtimoiy sohani rivojlantirishda yetarli ichki moliyaviy manbalar bo'lmagan boisi, xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ), Jahon banki guruhi, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB), Islom taraqqiyot banki (ITB) kabi nufuzli institutlar davlatlarga nafaqat moliyaviy ko'mak beribgina qolmay, balki islohotlar strategiyasini ishlab chiqishda, texnik ko'mak, ekspertiza, konsalting xizmatlarini ko'rsatishda ham faol ishtiroy etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda xalqaro moliya-kredit institutlari (XMKI) bilan hamkorlikni chuqurlashtirish orqali iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va infratuzilma rivojini ta'minlashga alohida e'tibor qaratmoqda.



O'zbekiston Respublikasida 2015–2025-yillar oralig'ida xalqaro moliya-kredit institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish va xalqaro tajribani tatbiq qilish bo'yicha chuqur institutsional, moliyaviy va iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, xalqaro moliya-kredit institutlari bilan to'g'ri va samarali yo'lgan qo'yilgan hamkorlik davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Xitoy davlati XMKI bilan ishlashda yashil obligatsiyalar, ekologik standartlar va "Green Taxonomy" orqali barqaror rivojlanishni moliyalashtirishni yo'lgan qo'yan.

Xitoy davlati tajribasi asosida O'zbekistonda "Yashil moliyalashtirish strategiyasi"ni ishlab chiqish va uni Jahon banki, AIIB, EBRD bilan hamkorlikda joriy etish maqsadga muvofiq.

Bu mamlakatda ekologik toza energetika, suv ta'minoti va chiqindilarni boshqarish kabi sohalarda qo'shimcha resurslarni jalgilish imkonini beradi.

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Sharqiy Yevropa, Lotin Amerikasi va Markaziy Osiyo davlatlarida XMKI bilan olib borilgan moliyaviy hamkorlik samaradorligiga oid ko'plab yutuqli tajribalar mavjud. Ushbu tajribalarda institutsional islohotlar, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, kambag'allikni kamaytirish dasturlari, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash kabi yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etgan.

Koreya Respublikasi xalqaro moliya-kredit institutlari (XMKI) bilan ishlashda eng avvalo har bir loyiha uchun strategik baholash tizimini ishlab chiqqan. Ya'ni, chetdan olinadigan moliyaviy resurslar faqat milliy strategiyalar bilan uyg'un holda ajratiladi.

Turkiya davlati Osiyo taraqqiyot banki (OTB) va Jahon banki bilan ishlashda davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmini keng tatbiq etgan. Ular sog'liqni saqlash, transport va ta'lim infratuzilmasini barpo etishda XMKI bilan hamkorlikda xususiy investorlarni faol jalg etmoqda.

Gruziya davlat qarzi boshqaruvida shaffoflik va parlament nazoratini kuchaytirgan. Har bir yangi tashqi qarz oldidan "qarz baholash hisobotlari" e'lon qilinadi.

Chile davlatida samarali fiskal qoida asosida qarz olish faqat investitsiyaviy loyihalar bilan cheklanadi.

Singapur xalqaro institutlar bilan hamkorlikda davlat xizmatchilarining malakasini muntazam oshirib kelmoqda. Ular uchun maxsus "Leadership Academy" tashkil etilgan bo'lib, u xalqaro moliyaviy boshqaruv, loyiha menejmenti va investitsiya tahliliga oid dasturlarni taklif qiladi.

Xalqaro moliya-kredit institutlari bilan hamkorlikning xorijiy tajribalari dunyo mamlakatlari turlicha shakllangan bo'lib, ularning ko'pchiligi xalqaro moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, infratuzilmani modernizatsiya qilish, raqamlashtirish, barqaror taraqqiyot va xususiy sektorni rivojlantirishga qaratilgan (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda XMKI Institutlar ulushi (2020–2025)¹

Nº	Jahon banki	
1	Osiyo taraqqiyot banki	35%
2	Islom taraqqiyot banki	28%
3	Yevropa tiklanish banki	18%
4	Boshqalar	12%
5	Jahon banki	7%
		35%

1-jadvalda O'zbekiston iqtisodiyotida XMKI institutlari ulushi ortib bormoqda, ularning global iqtisodiy muvozanatni ta'minlash va iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashishdagi roli yanada kuchaymoqda. Osiyo taraqqiyot banki va Islom taraqqiyot banki hududiy loyihalarga, ayniqsa ijtimoiy xizmatlar va qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan.

Xalqaro moliya-kredit institutlari (XMKI) bilan hamkorlikning samaradorligi va natijadorligi yuqori bo'lgan xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu yo'nalishda muvaffaqiyatga erishgan davlatlar quyidagi omillarni inobatga olgan: milliy strategiyalar bilan uyg'unlik, institutsional islohotlar, shaffof boshqaruv, raqamlashtirish va xususiy sektorni faol jalg etish (2-jadval).

¹ World Bank (2024). Helping Uzbekistan Undertake a Historic Social and Economic Transformation. 2018–2024-yillar oralig'ida Jahon bankining 4 ta DPO orqali jami \$2,1 mlrd transfert qilingan, shu jumladan 2020-yilda wbgrants.uzworldbank.org.



2-jadval. O'zbekistonda XMKI tomonidan moliyalashtirilgan loyihalar tarmoq kesimida (2015–2025-yillar)²

Nº	Soha	Loyiha soni	Moliyalashtirish hajmi (mln AQSH doll.)	Asosiy donor
1	Infratuzilma	28	2150	OTB, Jahon banki
2	Qishloq xo'jaligi	14	870	ITB, Jahon banki
3	Ta'lim va sog'liqni saqlash	11	540	YTTB, UNDP
4	Energetika	9	1620	OTB, AIIB
5	Iqtisodiy boshqaruv	6	315	XVJ, Jahon banki

2-jadvalda O'zbekistonda XMKI tomonidan moliyalashtirilgan loyihalarda infratuzilmani rivojlantirishga ajratilgan mablag'lar o'sib borayotganini ko'rish mumkin. 2015–2025-yillar oraliq'ida ushbu yo'nalishda barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilganini tasdiqlaydi. Xalqaro moliya-kredit institutlari bilan hamkorlikning ayrim salbiy jihatlari ham mavjud bo'lib, ba'zi holatlarda ularning kredit shartlari, qarz yuki, siyosiy shartlanishlar va iqtisodiy suverenitetga ta'siri borasida bahsli jihatlar yuzaga kelgan. Shu sababli, bu boradagi xorijiy tajribani o'rganish, har bir davlat sharoitiga mos xulosalar chiqarish va o'ziga xos yondashuvlarni ishlab chiqish zarur (3-jadval).

3-jadval. XMKI ko'magida amalga oshirilgan islohotlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri (2020-2025-yillar)³

Nº	Islohot yo'nalishi	Institut ko'magi	Amalga oshirilgan yili	Kuzatilgan natijalar
1	Soliq islohotlari	Jahon banki, XVJ	2019-2022	Yagona soliq stavkasi, raqamlashtirish
2	Energetika bozori	OTB, AIIB	2020-2024	Tarif liberalallashtirildi, SOE islohotlari
3	Davlat moliyasi ochiqligi	XVJ	2018-2021	Ochiq byudjet portali ishga tushdi
4	Bank sektorini transformatsiya qilish	YTTB, Jahon banki	2021-2025	Davlat banklari aksiyalashdi

3-jadvalda XMKI ko'magida amalga oshirilgan islohotlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri aks ettilrilgan. Xorijiy davlatlarning xalqaro moliya-kredit institutlari bilan hamkorlik tajribasini o'rganish, ularning muvaffaqiyat omillari va kamchiliklarini tahlil qilish, O'zbekiston uchun ushbu tajribaning amaliy ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Shu asosda, xalqaro moliyaviy institutlarning roli, hamkorlik shakllari, moliyaviy instrumentlari hamda hamkorlik natijalari tahlil qilinadi va O'zbekiston sharoitida qo'llanishi mumkin bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillarimiz xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitda tatbiq qilishda bir qator tizimli va institutsional muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Ularni aniqlash va samaradorligi yuqori bo'lgan yechimlarni amaliyatga joriy etish maqsadga muvofiqdir:

Har bir loyihani baholashda foydalanuvchi kutilmalari, ijtimoiy ta'sir va iqtisodiy rentabellik mezonlariga asoslangan baholash tizimi joriy etilishi lozim.

2 World Bank (2024). Helping Uzbekistan Undertake a Historic Social and Economic Transformation. 2018–2024-yillar oraliq'ida Jahon banking 4 ta DPO orqali jami \$2,1 mlrd transfert qilingan, shu jumladan 2020-yilda wbgrants.uzworldbank.org.

3 World Bank (2024). Helping Uzbekistan Undertake a Historic Social and Economic Transformation. 2018–2024-yillar oraliq'ida Jahon banking 4 ta DPO orqali jami \$2,1 mlrd transfert qilingan, shu jumladan 2020-yilda wbgrants.uzworldbank.org.



Xususiy sektorni rag'batlantirish maqsadida imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari va xalqaro konsalting xizmatlari taqdim etilishi kerak.

Jahon banki, OTB va boshqa XMKI bilan hamkorlikda "Loyiha menejmenti va moliyalashtirish" bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini joriy etish.

XMKI bilan birgalikda davlat qarzini boshqarish strategiyasini yangilash va uni har yili takomillashtirib borish lozim.

Har bir loyiha milliy rivojlanish strategiyasiga mos bo'lishi kerak.

Har bir tashqi moliyaviy loyiha yakunida natijaviylik va ijtimoiy ta'sir baholab borilishi lozim.

Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki kabi tashkilotlar bilan hamkorlik natijasida energetika, infratuzilma, qishloq xo'jaligi, raqamli iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda salmoqli loyihamalar amalga oshirildi.

Ushbu jarayonda bir qator tizimli muammolar ham mavjud bo'lib, ular xalqaro tajriba asosida hal etilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro moliya-kredit institutlari bilan hamkorlikning xorijiy tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bunday institutlar bilan ishlashda har bir mamlakat o'zining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy xususiyatlarini inobatga olgan holda moslashuvchan va strategik yondashuvni tanlashi zarur. Ilmiy tadqiqotlar natijalari XMKI bilan hamkorlikning muvaffaqiyatini ta'minlashda shaffoflik, institutsional salohiyat va tizimli yondashuv hal qiluvchi omillar ekanligini ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Griffith-Jones S., Ocampo J.A. The Future of Multilateral Development Banks: Toward a New Research and Policy Agenda // Global Economic Governance Programme. – 2018. – No. 03.
2. Reinsdorf F. Infrastructure and Development in Asia: The Role of ADB // Asian Development Review. – 2019. – Vol. 36, No. 2. – P. 1–28.
3. Капустина Е.А. Международные финансовые институты в обеспечении устойчивого роста: опыт России // Экономика и управление. – 2016. – №6 (126). – С. 45–50.
4. Владимирова А.Е. Эволюция сотрудничества России с ЕБРР в области устойчивого развития // Финансы и кредит. – 2020. – №7. – С. 78–85.
5. Abduraxmonov X.X. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning milliy islohotlarga ta'siri // Iqtisodiy taraqqiyot. – 2021. – №2. – Б. 41–47.
6. Yusupov I., Rustamova M. Xalqaro loyihamalar va mintaqaviy taraqqiyot: O'zbekiston tajribasi // Taraqqiyot strategiyasi jurnali. – 2022. – №4. – Б. 55–63.
7. Ibragimov N. Xalqaro moliyaviy institutlar va byudjet boshqaruvi islohotlari // Moliya va bank jurnali. – 2023. – №6. – Б. 33–41.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100